ZAMONAVIY INSON INQIROZI: SABAB VA OQIBATLARI

Abdurashidova Kibriyoxon Usmonaliyevna
Farg`ona davlat universiteti tarix fakulteti falsafa yo`nalishi 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Falsafada axloq kishi va jamiyat o`rtasidagi ob`ektiv o`zaro bog`lanishning ma`naviy ifodasi bo`lib, shaxs va jamiyat o`rtasida yuzaga keladigan ziddiyatlarni bartaraf etishning asosiy shakllaridan biridir. Zamonaviy insonning axloqiy inqirozi esa kishini nafaqat o`zligini anglasidan mosuvo etadi, balki uni jamiyatdan uzoqlashtiradi.*

Kalit so‘zlar: *axloqiy inqiroz, zamonaviy jamiyat, ma’naviy qadriyatlar, individualizm, ommaviy madaniyat, globallashuv, insonparvarlik, axloqiy tarbiya, falsafa.*

Ключевые слова: *нравственный кризис, современное общество, духовные ценности, индивидуализм, массовая культура, глобализация, гуманизм, нравственное воспитание, философия*

Keywords: *moral crisis, modern society, spiritual values, individualism, mass culture, globalization, humanism, moral education, philosophy*

Аннотация: *В философии нравственность рассматривается как духовное выражение объективного взаимодействия между личностью и обществом и выступает одной из основных форм преодоления противоречий, возникающих между ними. Нравственный кризис современного человека не только лишает его способности к самосознанию, но и приводит к отчуждению от общества.*

Annotation: *In philosophy, morality is understood as the spiritual expression of the objective interaction between the individual and society, serving as one of the fundamental means of resolving the contradictions that arise between them. The moral crisis of modern individuals not only deprives a person of self-awareness but also leads to alienation from society.*

Kirish

Bugun zamon shiddat bilan odimlamoqda, globallashuv, texnologik taraqqiyot va axborot oqimining keskin ortishi sabab insonlar hayotida ham chuqur o’zgarishlar kuzatilmoqda. Bu bir tomondan qulaylik va katta imkoniyatlar bergan bo’lsa, ikkinchi tomondan insonlar o’rtasidagi axloqiy qadriyatlarning zaiflashuvi, mas’uliyat hissining ortish o’rniga pasayishi va oqibatda ongimizda ma’naviy bo’shliq hosil qilishday kutilmagan muammolarni keltirib chiqarmoqda. Natijada zamonaviy inson hayotida axloqiy inqiroz deb ataluvchi holat yuzaga kelmoqda.

Axloqiy inqiroz – bu jamiyatda va shaxs ongida yaxshilik va yomonlik, burch va mas’uliyatni anglash, halollik, adolat kabi axloqiy mezonlarning o’z ahamiyatini yo’qota borishidir. Bu esa insonlarning ichki olamida befarqlik, muayyan bir maqsadning yo’qligi va ma’naviy tanazzul shaklida namoyon bo’ladi.

Zamonaviy insonning axloqiy inqirozi sabablariga yuqorida ta’kidlaganimiz, globallashuv, texnologiyalarning tez rivojlanishi, an’anaviy qadriyatlarning yemirilishi, iste’mol madaniyatining o’sishi kiradi. Oqibatlari esa ijtimoiy aloqalar zaiflashishi, ma’naviy bo’shliq, nomaqbul hatti-harakatlar ko’payishi, insonlar o’rtasidagi ishonchsizlik va nizolarning avj olishiga olib keladi, bu esa jamiyatning barqarorligiga xavf tug’diradi. Shuningdek, asrlardan asrlarga ko’chib o’tayotgan an’anaviy axloqiy qadriyatlar – halollik, vijdon, sabr, hurmat, mehnat kabi tushunchalar o’rnini manfaatparastlik va individualizm egallamoqda. Natijada insonlar o’z foydasini jamiyat manfaatidan ustun qo’ya boshladilar. Har bir ishga qo’l urayotganlarida bu menga nima foyda olib keladi deya o’ylamoqdalar.

Insonlarning barkamol shaxs sifatida rivojlanishiga to’rt tomondan yopirilib kelayotgan va o’z o’rnida butun dunyoga xavf solayotgan ommaviy madaniyat ta’siri ham bosh omil bo’lib qoldi. Ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda zo’ravonlik, iste’molchilik va yuzaki hayot tarzi targ’ib qilinishi axloqiy mezonlarning yemirilishi asosi bo’lib qolmoqda. Insonlar, asosan yoshlar esa smartfon yordamida bu olamga istagan vaqtlarida sho’ng’ib ketishmoqda. Bundan tashqari, texnologiyalarning haddan tashqari ustunligi ham shaxs rivojlanishida muhim iz qoldirmoqda.

Texnika taraqqiyoti insonlar o’rtasidagi jonli muloqot o’rnini virtual aloqalar bilan almashtirmoqda. Ota-ona bilan bo’ladigan suhbatlar, ikki do’st o’rtasidagi munosabatlar ham telefonga, ijtimoiy tarmoqqa ko’chdi. Bu esa rahm-shafqat, hamdardlik, mehr kabi axloqiy fazilatlarning sustlashuviga sabab bo’lmoqda.

Ma’lumki, tarbiyaning umumiy ijtimoiy vazifasi yosh avlodda bilim, ko’nikma, ijtimoiy tajriba va axloq me’yorlarini shakllantirishdan iborat. Shunga ko’ra, yosh avlodga tarbiya berish – maqsadga yo’naltirilgan tarbiyaviy ta’sir ko’rsatish, ijtimoiy hayotda munosabatga kirishish me’yorlari va unga rioya etish talablari bo’yicha zaruriy shart-sharoit yaratishni nazarda tutadi. Bizga ma’lumki, boy ma’naviy, madaniy qadriyatlarga ega xalqmiz. Ana shu qadriyatlar, urf-odatlar, rasm-rusumlar va tarbiya usullari orqali bobolarimiz, momolarimiz farzandlarini odob-axloqli, bir-biriga mehribon, do’st, yaxshi va yomon kunlarida yelkadosh qilib voyaga yetkazishgan. Milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalangan farzandlar aql-zakovat, mehr-oqibat, xalqparvarlik, jasurlik va mardlikda o’zligini namoyon etib nom qozongan.

Bizga ma’lumki, oila axloqiy tarbiyaning asosiy maktabi bo’lsa-da, zamonaviy sharoitda oilaviy munosabatlarning zaiflashuvi yosh avlodda axloqiy bo’shliqni yuzaga keltirmoqda. Qaynona-kelin, er-xotin o’rtasidagi ziddiyatlar, zo’ravonliklar bunga guvoh bo’lib qolayotgan farzandlar qalbini zararlamoqda, hayotga nisbatan qasoskor bo’lib qolishiga olib kelmoqda.

Jamiyatda adolatning buzilishi, korruptsiya va tengsizlik axloqiy me’yorlarga bo’lgan ishonchni susaytiradi va insonlardagi befarqlikni kuchaytiradi. “Ijtimoiy adolat” o’rnatilganda esa mamlakatdagi barcha odamlar salohiyatini yuzaga chiqarish uchun teng sharoitlar yaratiladi, xalqimiz kelajakda emas, bugun ham yaxshi yashashi yo’lida barcha imkoniyatlar safarbar etiladi, kambag’allikni tugatish choralari ko’riladi. Bu jarayon mamlakatda kuchli ijtimoiy adolatni ta’minlashdagi bosh asos bo’ladi, desak mubolag’a emas. Boisi, har qanday ijtimoiylashuv hodisasi va dahldorlik hissi, insoniy munosabatlar,

siyosiylashuv jarayoni, avvalo, egalik tuyg’usi bilan uyg’un shakllanadi, takomillashib boradi.

Mavzuning uzviy davomi bo’lgan “axloqiy inqiroz” tushunchasi esa inson qalbi va tafakkuridagi barcha ezgu g’oyalar aksidir. Bu insonda ruhiy tushkunlik, ma’naviy bo’shliq, hayot mazmunini yo’qotish kabi holatlarni keltirib chiqaradi, jamiyatda esa jinoyatchilik, korruptsiya, zo’ravonlik va ijtimoiy beqarorlikning ortishiga olib keladi. Bu kabi inqirozdan chiqish yo’li esa axloqiy tarbiyani kuchaytirish, oilaviy qadriyatlarni qayta tiklash va ma’naviy boylikka e’tibor berishdan iboratdir.

Xulosa

Zamonaviy inson axloqiy inqirozi tasodifan paydo bo’lgan hodisa emas, balki ijtimoiy, madaniy va texnologik omillarning murakkab uyg’unligi natijasida yuzaga kelgan holatdir. Uni bartaraf etish esa ma’naviy tarbiyani kuchaytirishni taqozo etadi. Buning uchun baxtiyor oilalarning jamiyatda tutgan o’rnini rolini mustahkamlash, ibrat olishga chorlash, ta’lim tizimida axloqiy qadriyatlarga e’tibor qaratish kerak. Falsafa esa insonni o’z mohiyatini anglashga, ezgulik va mas’uliyat yo’lini tanlashga, fikrlashga va munosib xulosaga chorlovchi muhim manba bo’lib qolaveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Aristotel. Nikomax axloqi. — Toshkent: Fan, 2002.
2. Platon. Davlat. — Toshkent: Yangi asr avlodi, 2004.
3. Kant I. Axloq metafizikasiga kirish. — Moskva: Mysl, 1995.
4. Hegel G. V. F. Huquq falsafasi. — Moskva: Nauka, 1990.
5. Fromm E. Inson uchun bo‘lish yoki ega bo‘lish. — Toshkent: Sharq, 2000.
6. Freyd Z. Madaniyat va norozilik. — Moskva: Respublika, 1998.
7. Sartr J.-P. Ekzistensializm — bu insonparvarlikdir. — Moskva: Progress, 1989.
8. Bauman Z. Suyuq zamonaviylik. — Cambridge: Polity Press, 2000.
9. Habermas J. Kommunikativ harakat nazariyasi. — Frankfurt am Main: Suhrkamp, 1981.
10. Karimov I. A. Yuksak ma’naviyat — yengilmas kuch. — Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
11. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. — Toshkent: O‘qituvchi, 1992.
12. Nasafi A. Komil inson. — Toshkent: Fan, 2001.
13. Beruniy A. R. Tanlangan asarlar. — Toshkent: Fan, 1985.
14. To‘raqulov A. Axloqshunoslik. — Toshkent: O‘zbekiston, 2015.
15. Sadullaev A. Falsafa asoslari. — Toshkent: Universitet, 2020.